JINOIY RAVISHDA HOMILA TUSHIRISH (ABORT)

Saparova Fotima Mirzaraxmon qizi

Toshkent davlat transport universiteti yurisprudensiya yo'nalishi "Xalqaro ommaviy huquq" kafedrasi 2-bosqich Yu-13 guruh talabasi.

Ismatullayeva Shirin Suratovna

Toshkent davlat transport universiteti Xalqaro ommaviy huquq kafedrasi professori

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jinoiy ravishda homila tushirish (abort) bilan bog'liq huquqiy, tibbiy va ijtimoiy masalalar tahlil qilinadi. Unda noqonuniy abortning jamiyat va inson salomatligiga salbiy ta'siri, ushbu jinoyatning kelib chiqish sabablari, yuridik tahlili, abort masalasini tartibga soluvchi normativ huquqiy hujjatlar hamda amaldagi qonunchilikdagi tarkibi va javobgarlik masalalari yoritilgan. Shuningdek, noqonuniy abortning oldini olish bo'yicha profilaktik choralar va huquqiy mexanizmlar muhokama qilinadi. Tadqiqot davomida milliy va xalqaro tajriba asosida muammoning dolzarbligi ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *jinoiy abort, homila tushirish, noqonuniy abort, jinoyat huquqi, reproduktiv salomatlik, tibbiy javobgarlik, ayollar huquqlari, profilaktika, qonunchilik, sog'liqni saqlash, yashash huquqi, fuqarolar repraduktiv huquqlari, BMT, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti:*

Аннотация; *В данной статье анализируются правовые, медицинские и социальные аспекты, связанные с преступным искусственным прерыванием беременности (абортом). В ней освещаются негативные последствия незаконного аборта для общества и здоровья человека, причины возникновения данного преступления, его юридический анализ, нормативно-правовые акты, регулирующие вопросы аборта, а также вопросы состава преступления и ответственности в действующем законодательстве. Кроме того, рассматриваются профилактические меры и правовые механизмы предупреждения незаконных абортов. В ходе исследования на основе*

национального и международного опыта раскрывается актуальностьданнойпроблемы.

Ключевыеслова: *преступный аборт, прерывание беременности, незаконный аборт, уголовное право, репродуктивное здоровье, медицинская ответственность, права женщин, профилактика, законодательство, здравоохранение, право на жизнь, репродуктивные права граждан, United NationsWorldHealthOrganization.*

Abstract: *This article analyzes the legal, medical, and social issues related to criminal abortion (illegal termination of pregnancy). It highlights the negative impact of illegal abortion on society and human health, the causes of this crime, its legal analysis, the normative legal acts regulating abortion issues, as well as the elements of the offense and liability under current legislation. Furthermore, the article discusses preventive measures and legal mechanisms aimed at preventing illegal abortions. Based on national and international experience, the study reveals the relevance and urgency of this issue.*

Keywords: *criminal abortion, termination of pregnancy, illegal abortion, criminal law, reproductive health, medical liability, women's rights, prevention, legislation, healthcare, right to life, citizens' reproductive rights, United Nations, World Health Organization.*

Hozirgi paytda fuqarolar hamda inson huquqlari ayniqsa xotin-qizlar huquqlari masalasi glabal tarzda ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli homila tushirish ham ijtimoiy, ma'naviy, huquqiy, tibbiy tarafdan keng ko'rib chiqilayotgan eng murakkab masalaladan biri. Abort tushunchasi nafaqat tibbiy tomondan balki jamiyat rivojlanishi va shaxsiy erkinlik bilan ham chambarchas bog'liqdir. Tarixiy jihatdan ko'rib chiqilganda, homila tushirishga bo'lgan qarashlar turli jamiyatda turlicha shakillangan. Avvalgi davrlarda bu holat ko'p hollarda hayot uchun xavfli va noqonuniy usullar yordamida amalga oshirilgan, keyinchalik tibbiyot sohasi rivojlanib borgani sari ular ma'lum bir nazorat ostiga olindi. Hozirgi paytda ma'lum bir qonunchilik bilan ham tartibga solinadi. Ayrim

jamiyatlarda homila tushirish man etilgan bolsa, boshqalarda esa malum shartlar asosida ruxsat etilgan. Huquqiy taraflama abort masalasi davlat tomonidan va belgilangan normativ huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Bu paytdagi ayolning sog'lig'i va ma'lum huquqlarini ta'minlash bilan bir qatorda bolaning manfaatlari ham ko'zdan holi bo'lmasligi kerak. Shuning uchun ham homila tushirish masalasi har qanday davlatda turlicha hisoblanadi va anchagina farqli taraflari mavjud. Mazkur kurs ishining asosiy maqsadi abort tushunchasining asl mazmuni, uning tarixi, rivojlanishi, bosjqa davlatlardan qanday farqli jihatlari bor ekanligini aniqlash va shaxsiy huquqlar qay darajada buzilayotganini ko'rsatib berishdir. Shu asosda abortga oid ma'lumotlar inson huquqlari, jinoyat va tibbiy huquq bilan bog'liq holda o'rganilib chiqiladi. Jinoiy ravishda abort qildirish ayol salomatligiga ziyon yetkazish bilan birga tug'ulmagan farzandga nisbatan yashash huquqining buzilishiga ham olib keladi. Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqi ekanligi va u qonun bilan muhofaza qilinganligi, inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat ekanligi bosh qomusimiz Konstitutsiyamizda belgilangan. Albatta bu hollarda ayol salomatligiga yoki o'sha tug'ilajak farzand salomatligiga zarar yetkazadigan holatlar bundan mustasno hisonlanadi. Qonunga zid ravishda amalga oshirilgan noqonuniy abort holati kerakli tibbiy sharoitlar va tajribali mutaxassislar ishtirokisiz bajariladi. Bu tartibdagi jinoiy ravishdgi homila tushirish ko'p hollarda yashirin tarzda amalga oshirilishi sababli, aniq bir ko'rsatkichli statistikasini aniqlash qiyin, lekin mavjud bo'lgan holatlar bu muommoning qay tarzda jiddiy ekanidan dalolat beradi. Jinoiy ravishda homila tushirish mavzusining dolzarb tarafi shundaki, u nafaqat ayol salomatligiga zarar yetkazadi balki, huquqiy javibgarliklarga ham sabab bo'ladi. Homila tushirish (abort) bu – homiladorlikning har xil bosqichlarida, asosan 12-22 haftagacha, homiladorlikning to'xtashi ya'ni tabiy tushish bilan yoki su'niy tushirish jarayoni hisoblanadi. Abort qilish huquqiy jihatdan 2turga bo'linadi; qonuniy va noqonuniydir. Qonuniy abort belgilangan tegishli sog'liqni saqlash muassasalarida berilgan ruxsat asosida amalga oshiriladi. Noqonuniy abort esa huquqiy jihatdan ruxsat etilmagan, tibbiyot muassasalari

belgilab qoygan talablarga amal qilmagan holda amalga oshiriladi. Homilani jinoiy ravishda tushirishga doir me'yorlar va Jinoyat kodeksining tegishli moddalarida noqonuniy abort va ayolni o'z homilasini tushirishga majburlash haqida belgilangan javobgarliklar nazarda tutilgan. Abort qildirishga bo'lgan munosabat turli davlatlarda turlicha masalan, Yevropa mamlakatlarida ayollarning repraduktiv huquqlari o'zgacha belgilangan. Ba'zi mamlakatlarda esa abort qilish qat'iyan taqiqlangan hamda javobgarlikka tortilishi belgilab qo'yilgan. Unday davlatlarga misol qilb, Polsha va Malta kabi davlatlarni kiritishimiz mumkin. Homila tushirishning ham turlari mavjud bo'lib ular quyidagilar;

Tibbiy abort – bu homilador ayolning sog'lig'iga katta ehtimol bilan xaf tug'diradigan homilaning o'zida qandaydir nuqson bilan tug'ilish xavfi bo'lganda. Ixtiyoriy abort – homilador ayolning o'z hoxishiga asosan homiladorlik davrini tugatish jarayoni hisoblandi.

Jinoiy abort – qonuniy asoslarga ega bo'lmgan tegishli belgilangan tibbiyot markazlarida amalga oshirilmagan va noqonuniy yo'llar orqali homilani tushirishga aytiladi. Bu harakat shubhasiz jinoyat tarkibini tashkil qiladi va tegishli javobgarlikni keltirib chiqaradi. Homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatishni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomi O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi. Unda homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatib turish belgilangan tartibda tegishli muossasalar tomonidan amalga oshirilishi kerakligi belgilab qo'yilgan. Ayol kishi tanasi ustidan tasarruf qilish huquqi repraduktiv huquqningning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Bu huquq ayolga kerakli barcha tibbiy huquqlardan foydalanish, homila davrini davom ettirish yoki tugatish, abort qildirishni ham tabiy ravishda xavfsiz abort qildirish imkoniyati kabi huquqlarni beradi. Shu o'rinda bu huquqlarni amalga oshirish bilan birga davlat ma'lum darajada cheklovlar ham o'rnatgan. Masalan ruxsat etilgan, tibbiy ko'rsatma bor ekanligi va homila muddati 12 haftagacha bo'lishi kerakligi. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ham fuqarolarning

repraduktiv huquqlari keltirilgan bo'lib unda ayollar huquqlari alohida e'tirof etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-sonli farmoniga asosan aholining repraduktiv salomatligini muhofaza qilish va sog'lom oilani shakillantirish yuzasidan bir qator davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda targ'ibot, tashviqot ishlari olib borilmoqda. Aholi orasida, ayniqsa xotin-qizlar va nikohdan o'tuvchi yoshlar orasida sog'lom bolalar tug'ilishi va tarbiyalash masalalari yuzasidan tizimli asosda tushuntirish ishlarini tashkil qilish maqsadida, joylardagi mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda oylik ish rejalariga asosan ish tashkil etildi va ijrosini nazorat qilish bo'yicha amaliy tizim yaratildi. Xususan, bu yo'nalishda tizimli ish tashkil etish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, tuman, shaharlarda va barcha mahallalarda maxsus jamoatchilik kengashi va ishchi guruhlari tuzildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda abortlar soni kamayib bormoqda – bu ko'rsatkich O'zbekistonda 2022 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 15-49 yoshli ayollar o'rtasida homiladorlikni to'xtatish (abortlar soni) 35,4 mingtani tashkil etdi. Bu haqda Davlat statistika qo'mitasi ma'lum qildi. Bu ko'rsatkich 2017 yilga nisbatan 7 mingtaga kamaygan. 2017–2021 yillarda mamlakatda 198,2 mingta homila abort qilingan.

Noqonuniy abort holatlari uchun javobgarlik masalasi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bilan tartibga solinadi. Xususan, Jinoyat kodeksining 114-moddasiga ko'ra: maxsus tibbiy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxs tomonidan abort qilish; sanitariya qoidalarini buzgan holda abort o'tkazish; ayolning roziligisiz homilani tushirish jinoyat hisoblanadi va tegishli jazoga sabab bo'ladi. Ushbu modda orqali davlat noqonuniy va xavfli abortlarning oldini olishni maqsad qiladi. Shuningdek, voyaga yetmaganlar bilan bog'liq holatlar ham alohida tartibga ega.

Xalqaro huquq normalari ham mazkur sohada muhim o‘rin tutadi. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda CEDAW konvensiyasi ayollarning sog‘lig‘ini saqlash va tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqlarini e’tirof etadi. Ushbu hujjatlar milliy qonunchilikni shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida yashash huquqi va sog’liqni saqlash huquqi keltirib o’tilgan bo’lsa, ayollarga nisbatan kamsitishni bartaraf etish to’g’risidagi konvensiyada ayollarning repraduktiv huquqlarini himoya qilish va xavfsiz tibbiy hizmatlardan foydalanishni ta’minlashni talab qilish huquqiga egadir.**[1]

Homilani jinoiy ravishda tushirish jinoyatiga belgilangan javobgarlikni aniqlashtirish uchun avvalo ularning turlarini o’rganib chiqishimiz kerak. Erkin ya’ni ixtiyoriy abort bu homiladorlikning dastlabki bosqichida amalga oshiriladi va ayolning yozma roziligi talab etiladi. Tibbiy ko’rsatmalar asosidagi abort bunda ona hayotiga xavf, og’ir kasalliklar va homilaning rivojlanish nuqsonlari bo’lganda. Ijtimoiy ko’rsatmalar asosidagi abortda esa zo’rlash natijasida homiladorlik va og’ir ijtimoiy sharoitlar sabab bo’lishi mumkin. Homilani jinoiy ravishda abort qilish jinoyati uchun javobgarlik Jinoyat kodeksida belgilangan bo’lib unda,

Shifokor akusher yoki ginekolog tomonidan davolash muassasalaridan tashqari joylarda yoki tibbiy nuqtai nazardan mumkin bo’lmagan holda sun’iy ravishda homila tushirish bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima solish yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud ikki yuz qiriq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi, sun’iy ravishda homila tushirishga huquqi bo’lmagan shaxsning bunday ishni amalga oshirishi esa bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qiriq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan

1 Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination Against Women (CEDAW), 1979.

ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi ko'rsatilgan. Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar ehtiyotsizlik orqasida jabirlanuvchining o'limiga va boshqacha og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash va yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. 2

Qonunchilikni takomillashtirish va jazolarni kuchaytirish, ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha targ'ibot ishlarini kengaytirish va huquqni muhofazo qilish orgonlarining ushbu masalada nazoratni kuchaytirish natijalariga ko'ra, noqonuniy abort va ayollarni bunga majburlash jamiyat uchun uchun katta xavf tug'dirish aniqlanadi. Ushbu jinoyatlarning oldini olish uchun qonunchilikni takomillashtirish, huquqiy targ'ibotni kengaytirish hamda huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini samarali tashkil etish lozim. Keltirilgan ma'limotlarga qarab mualliflik huquqi asosida bu mavzuga yondashuvlar ilgari surildi.

I. Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan abort masalasi alohida huquqiy tartibga solinishi kerak. Amaldagi qonunchilikda voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan abort qildirish imkonini bersa ham bu xavfli omil sifatida qaraladi. Ammo bu yoshdagi abort ko'p hollarda asosan jinsiy zo'ravonlik qurbonlari hisoblanadi. 2023-yildagi o'zgarishlarga qarasak, 18 yoshga to'lmagan shaxslarga nisbatan nomusga tegish va jinsiy zo'rovonlik jinoyati uchun jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanilmaydi. Shu sababdan ham Jinoyat kodeksi 114-moddasiga 114^1-moddasi sifatida kiritish.

II. Abort qildirgan ayolga nisbatan jinoiy javobgarlikni joriy etish. 2022-yil 1-yanvar holatida 35,4 mingta abort qayd etilgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, abortlarning asosiy qismi (83,8%) 20-34 yoshdagi ayollarga to'g'ri keladi . Bu yoshdagi ayollar reproduktiv salomatlik nuqtai nazaridan eng faol guruh hisoblanadi va ularning sog'lig'iga yetkazilgan zarar kelajak avlodga ham salbiy

2 O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi – T.: "Yuridik adabiyolar publish", 2025-y. – 79 b.

ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston qonunchiligida abort qilgan ayolning o‘zi hech qanday holatda jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Faqat noqonuniy abortni amalga oshirgan shifokor yoki ayolni abortga majburlagan shaxs javobgar bo‘ladi . Bu esa, amaliyotda ayollarning abortga bo‘lgan munosabatini mas’uliyatsiz qilib qo‘yadi. Xorijiy qonunchilikda abort qilgan ayolga nisbatan javobgarlik belgilangan davlatlar mavjud. Ushbu tajribalar qiyosiy tahlil sifatida kurs ishiga kiritilishi mumkin: Malayziya Jinoyat kodeksining 312-moddasiga ko‘ra, homilador shaxsning o‘zi o‘z ixtiyori bilan abort qilsa, jinoyat sodir etgan hisoblanadi. Jazo 10 yilgacha qamoq, jarima yoki ikkalasi birgalikda qo‘llanilishi mumkin . Malta Yevropa Ittifoqida abort eng qattiq taqiqlangan davlatlardan biri. 2025-2026 yillardagi sud amaliyotiga ko‘ra, abort qilgan ayollarga shartli ravishda ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llanilmoqda. Masalan, 2025-yil iyulida ayol abort qilganligi uchun aybdor deb topilib, shartli qamoq jazosiga hukm qilingan . 2026-yil mart oyida esa yana bir ayol 18 oylik qamoq jazosiga (3 yilga shartli) hukm qilingan . Maltada shifokorlar abort holatlari haqida politsiyaga xabar berishga qonuniy majburdir. 35,4 mingta abort (2022-yil) ko‘rsatkichi profilaktika choralarining yetarli emasligini ko‘rsatadi. Ayolga nisbatan yengil jazo chorasi (jarima, ma’muriy nazorat) joriy etilsa, abortlar sonining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadi, ayolni javobgarlikka tortadigan davlatlarda abort ko‘rsatkichi nisbatan past.

III. Ayollar reproduktiv huquqlarini himoya qilish bo‘yicha hududiy boshqarmalar tarmog‘ini kengaytirish. 2026-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistonda ayollar soni 18 979,0 ming nafarga yetgan va bu mamlakat doimiy aholisining 49,6 foizini tashkil etadi . Reproduktiv huquqlarni himoya qilishga ixtisoslashgan – ya’ni abort masalalari, kontratseptsiya, jinsiy tarbiya, zo‘ravonlik oqibatida homiladorlik kabi masalalarda ayollarga huquqiy va psixologik yordam ko‘rsatadigan tuzilmalar soni yetarli emas. Xorijiy davlatlarda ayollar reproduktiv huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ixtisoslashgan hududiy tuzilmalar keng rivojlangan: Germaniya: Har bir federal yerda “Ayollar maslahat markazlari”

(Frauenberatungsstellen) faoliyat yuritadi, ular abort masalasida majburiy maslahat berish huquqiga ega. Fransiya: Har bir departamentda “IVG markazlari” (Interruption volontaire de grossesse) mavjud bo‘lib, ular abortga oid huquqiy, tibbiy va psixologik yordam ko‘rsatadi. Ayollar soni eng yuqori bo‘lgan 3 ta hududda (Samarqand, Farg‘ona, Qashqadaryo) tajriba-sinov tariqasida boshqarmalar tashkil etish. . qolgan hududlarda esa hududlararo markazlar tarmog‘i orqali xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilsin. Har bir boshqarmada: 1 ta huquqshunos, 1 ta psixolog, 1 ta ijtimoiy ishchi, 1 ta tibbiy maslahatchi shtat birligi. Qolgan barcha hududlarda hududlararo markazlar tarmog‘ini yaratish. Masofaviy (onlayn) konsultatsiya xizmatlarini joriy etish.